

XO'JALIK YURITUVCHI SUB'YEKTLAR MOLIYASIDA MOLIYAVIY RESURLARNING O'RNI

Nabiyev Olimjon Abdisalomovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti,
nabievolim1984@gmail.com

Botirjonov Baxodir Botirjon o'g'li

IM-701-24 guruh magistratura talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasida moliyaviy resurslarning o'rni va ularning iqtisodiy faoliyat samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Moliyaviy resurslarning shakllanish manbalari, ularni boshqarish mexanizmlari hamda xo'jalik subyektlarining barqaror rivojlanishida moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, investitsion salohiyatini oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda moliyaviy resurslarning strategik roli asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy resurslar, xo'jalik yurituvchi subyekt, moliyaviy barqarorlik, investitsiya, iqtisodiy o'sish.

Аннотация

В данной статье рассматривается роль финансовых ресурсов в финансах хозяйствующих субъектов и их влияние на эффективность экономической деятельности. Раскрываются источники формирования финансовых ресурсов, механизмы их управления, а также значение рационального использования финансовых ресурсов для устойчивого развития предприятий. В исследовании обоснована стратегическая роль финансовых ресурсов в укреплении финансовой устойчивости, повышении инвестиционного потенциала и обеспечении экономического роста.

Ключевые слова: финансовые ресурсы, хозяйствующий субъект, финансовая устойчивость, инвестиции, экономический рост.

Abstract

This article analyzes the role of financial resources in the finances of business entities and their impact on economic efficiency. It explores the sources of financial resource formation, management mechanisms, and the importance of their rational use for the sustainable development of enterprises. The study substantiates the strategic role of financial resources in strengthening financial stability, increasing investment potential, and ensuring economic growth.

Keywords: financial resources, business entity, financial stability, investment, economic growth.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi va samarali faoliyati ularning ixtiyoridagi moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish darajasiga bevosita bog'liqdir. Moliyaviy resurslar korxonaning ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, yangi texnologiyalarni joriy etish, mehnat

unumdorligini oshirish hamda raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Hududlarda korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, mahalliy korxonalarni qo'llab quvvatlash, ularning ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashning zaruriy jihatlari xususida Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: "hududiy va tarmoq boshqaruvi samarasiga, ularning rivojiga xolis baho berishni qiyinlashtiradigan holatlar mavjud. Masalan, respublikaga bo'ysunadigan yirik korxonalar ko'rsatkichini chiqarib tashlasak, viloyatlar yalpi hududiy mahsuloti xajmi juda kichik bo'lib qoladi" va "Har bir tuman va shaharda, respublika ahamiyatiga molik yirik korxonalar hissasini e'tiborga olmagan holda, soliqqa tortish bazasini kengaytirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent viloyatining barcha tumanlarini subventsiyadan chiqarishni so'zsiz ta'minlash kerak" – deya ta'kidlab o'tgan edilar¹. Shu nuqtai nazardan, qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Buning hisobidan o'tgan yili soliq to'lovchilar ixtiyorida 2 trillion so'm qoldi. Joriy yilda bu raqam 11 trillion so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Bir yilda tadbirkorlar ixtiyorida shuncha mablag' qolishi, albatta, ularga o'z bizneslarini rivojlantirish uchun juda katta qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini moliyaviy resurslarini boshqarish tizimi samaradorligini oshirish bir qator xorijiy va respublikamiz olimlari tomonidan o'rganilgan hamda tahlil qilingan. Jumladan: R. Breyli[1], Jon Van Xorn [2], R. Merton, R.E[3]. Meshalkina[4], V. V. Bosharov[5], V. Stoyanova[6], I.A. Blank[7], V. Kovalev[8], I. T. Blank[9], L.P. Pavlova[10], A.V. Vahobov, T.S. Malikov[11], O.O. Olimjonov[12], E.A. Akramov[13], O.K. Iminov[14], N.X. Xaydarov[15], Xudoyqulov S[16]., R.X. Karlibaeva[17], Ibroximov A.T[18]., X.A. Qurbonov[19], Ishonqulov N.F.[20] va boshqalar. Iqtisodchi olim A.V. Vahobovning "Moliya" darsligida davlatning moliyaviy aktivlari, korxonalarni moliyaviy resurslari o'rganilgan.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan samarali foydalanish jarayonlarini o'rganish uchun ilmiy tahlil, taqqoslash usullaridan foydalanildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor vazifalari iqtisodiyotni erkinlashtirish, davlatning boshqaruvchilik funksiyasini qisqartirish va uning iqtisodiyotga aralashuvini cheklashdan iborat. Shu bilan birgalikda, milliy ishlab chiqarishni shakllantirish va rivojlantirish, byudjet-soliq siyosati uyg'unligini ta'minlash, byudjet defitsitiga yo'l qo'ymaslik muhim ustuvor vazifalar qatoriga

¹ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi


kiradi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun, avvalo, soliqlar orqali iqtisodiyotni boshqarish mexanizmini to'g'ri, oqilona ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish lozim bo'ladi.

Albatta yuqoridagi ko'zlangan maqsadga erishish uchun har bir qilingan xarajatning manbai bo'lgani kabi byudjetga tushumlarning ya'ni soliq to'lovlarining o'z vaqtida va ko'zlangan pul oqimlarining kelib tushishi uchun avvalambor korxonalar moliyasi sog'lom va barqaror bolishi ya'ni moliyaviy resurslar bilan yetarli darajada ta'minlangan bolishi lozim.

Korxona va tashkilotlari moliyaviy resurslari — bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning ixtiyorlarida bo'lgan va turli xarakterdagi moliyaviy majburiyatlarni bajarishga, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni barqarorligini ta'minlashga doir xarajatlarni amalga oshirishga mo'ljallangan pul daromadlari va tushumlaridir.

Rossiyalik iqtisodchi V.M.Rodionovanning fikricha, moliyaviy resurslarni shakllantirishning asosiy manbalari quyidagilar hisoblanadi:

- korxonaning xususiy va unga tenglashtirilgan mablag'lari;
- moliyaviy bozorlardan jalb qilingan resurslar;
- moliya bank tizimidan qayta taqsimlash natijasida kelib tushgan mablag'lar.



1-rasm. Korxona moliyaviy resurslari tarkibi¹

¹И.М.Карасева, М.А.Ревякина «Финансовый менеджмент», ОМЕГА. Москва-2012, 18-стр.

1-rasmda korxona moliyaviy resurslar tuzilishi ko'rsatilgan. Xususiyl kapital tarkibida foyda asosiy rolni o'ynaydi. Bu manba resurslari, uning miqdori shakllanishi korxonaning o'zida amalga oshiriladi va mustaqil hisoblanadi.

Korxona moliyasi — korxona xo'jalik faoliyati jarayonida pul mablag'larining shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi bilan bog'liq vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir. Korxona moliyasi korxona faoliyatining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Korxona moliyasi moliyaviy resurslar manbalari, yalpi ichki mahsulot va milliy daromad yaratiladigan moddiy ishlab chiqarish doirasida bevosita qatnashadi. Umumiy holatda korxona moliyasini quyidagi 3-rasmda ko'rishimiz mumkin.

Korxona quyidagilar bilan o'zaro moliyaviy munosabatlarga kirishishi pul fondlarining shakllanishi orqali amalga oshiriladi:

- mol yetkazib beruvchilar – uning faoliyati uchun zarur bo'lgan moddiy qiymatliklar, xizmatlar sotib olinishida;
- pudratchilar – qurilish — montaj, remont va boshqa ishlarga to'lov;
- xaridorlar – tovar realizatsiyasida va xizmat ko'rsatishda;
- byudjet bilan – soliqlar, ajratmalar va boshqa to'lovlar bo'yicha;
- banklar – kreditlar, pul mablag'larining saqlanishi, hisob-kitob operatsiyalariga to'lovlar;
- ishchi va xizmatchilar – ish haqi va boshqa hisob-kitoblar bo'yicha.


Korxona moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlashda shu narsani inobatga olish kerakki, moliyaviy natija faqat moliyaviy emas, balki moddiy va mehnat resurslari xarajatlarining natijasi hamdir. Shuning uchun ham, masalan, mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan foydani taqqoslab turib, buning natijasida faqat faoliyatning sof moliyaviy tomonini xarakterlovchi ko'rsatkichga ega bo'lamiz, deb hisoblash maqsadga muvofiq emas. Bu korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini xarakterlovchi yaxlit ko'rsatkichlardan biri bo'lib, unga kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida moddiy ishlab chiqarish va moliyaviy oqimlarning ajralmas bog'liqligi xosdir.

Korxona moliyaviy operatsiyalarining daromadlilikini xarakterlovchi ko'rsatkich ularning samaradorligini sof moliyaviy natijaning sof moliyaviy xarajatlarga nisbati shaklida ifodalab, ko'pchilik hollarda korxona moliya-xo'jalik faoliyatining haqiqiy samaradorligini aks ettirmaydi. Iqtisodiyot real sektori samaradorligining ko'rsatkichlarida va baholarida bankrot holatida bo'lishlariga qaramasdan moliyaviy “spekulyatsiyaning” imkoniyatlari ularni “cho'kmasdan” turishlariga sharoit yaratadi.

1.2.2-rasm ma'lumotlariga ko'ra korxona moliyasida moliyaviy munosabatlar va pul fondlarining tutgan o'rnini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki korxona moliyasi asosiy 2 qismga ya'ni moliyaviy munosabatlar va pul fondlariga ajratilganini ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birga barcha moliyaviy ko'rsatkichlarda mazmun va shakl o'rtasida dialektik qarama-qarshilikning mavjudligi namoyon bo'ladiki, bu narsa bizning holatda korxonalar moliyasining (iqtisodiyot yaxlit moliyaviy sektorining ham) o'z iqtisodiy asosidan, ishlab chiqarishdan ajralib chiqishga va unga bog'liq bo'lmagan holda mustaqil hayot kechirish imkoniyatini qo'lga kiritishga intilishi orqali

ifodalanadi. Korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatining samaradorligini tahlil qilish va baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar (masalan, tushum va foyda) moddiy aylanma mablag'larning aylanuvchanligi, asosiy ishlab chiqarish fondlari va nomoddiy aktivlarning fond sig'imi kabi iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan birgalikda qaralsa, bu qarama-qarshilik, ma'lum darajada, pasayadi.



2-rasm. Korxona moliyasida moliyaviy munosabatlar va pul fondlarining tutgan o'рни¹.

¹ И.М.Карасева, М.А.Ревякина «Финансовый менеджмент», ОМЕГА. Москва-2012, 21-стр.

Real sektor korxonalarida, moddiy ishlab chiqarishda moliyaviy resurslardan foydalanishning samaradorligini mos ravishda baholash talablariga u yoki bu darajada sotuv rentabelligi ko'rsatkichi (foydaning mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan tushumga nisbati) javob beradi. Bu nisbatdagi surat va maxraj pul mablag'laridan iborat bo'lganligi uchun sotuv rentabelligini, ayrim holatlarni istisno qilgan tarzda, sof moliyaviy ko'rsatkich sifatida e'tirof etish mumkin. Shunday bo'lishiga qaramasdan bu yerda yana bir narsani inobatga olmoq lozim, ya'ni samaradorlikning o'lchovi sifatida yuqoridagi ko'rsatkichning haqqoniylik darajasi juda ko'p omillarga, xususan, tushum va foydani shakllantiruvchi bozor baholarining monopol baholarni shakllantirishning salbiy ta'sirlaridan qanchalik ozod ekanligiga bog'liq.

Korxonalarda pul fondlari korxona moliyasini tashkil etish asosini tashkil etadi. Chunki pul mablag'lari bo'lgandagina korxona moliyasiga ehtiyoj yuzaga keladi. Korxona moliyasi belgilangan maqsadga erishish uchun pul foydalarini shakllantiradi, ularni taqsimlaydi, ko'paytiradi ya'ni pul oqimlarini kengaytiradi va foydalanadi.

Korxona pul mablag'laridan samarali foydalanish maqsadida turli maqsadli fondlarni shakllantiradi. Har bir pul fondlarining o'z maqsad va vazifalari belgilanadi. Korxonalar pul fondlarini shakllantirish orqali xo'jalik faoliyatini kerakli mablag'lar bilan ta'minlashni amalga oshiradi, hamda takror ishlab chiqarishni kengaytiradi, pul oqimlarini ishlab chiqarish uzluksizligiga qaratadi, ilmiy texnika jarayonini moliyalashtiradi, yangi texnikani o'zlashtiradi va joriy etadi, subyektlarni iqtisodiy rag'batlantiradi, byudjet, bank, kontragentlar va hokazolar bilan hisoblarni amalga oshiradi.


Korxonaning o'z mablag'lari fondlari – korxona faoliyatini yuritishida o'ziga tegishli asosiy mablag'lari hisoblanadi. Bu mablag'larning ortishi korxonaning rivojlanayotganidan dalolat beradi. Korxonaning o'z mablag'lari xususiy kapital ham deb yuritiladi. Bu kapital o'z ichiga ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Korxonalarda shakllanadigan pul fondlarini quyidagi 3-rasm misolida mohiyatini ochishga to'xtalishimiz maqsadga muvofiqdir.

Korxona pul mablag'laridan samarali foydalanish maqsadida turli fondlarini shakllantirar ekan, bu fondlarni shartli ravishda quyidagicha tasvirlashimiz mumkin. Chunki har bir korxona o'z faoliyatidan kelib chiqib, o'ziga ahamiyatli bo'lgan pul fondlarini shakllantiradi. Ya'ni bir korxonada bo'lgan pul fondlari boshqasida bo'lmasligi mumkin. Umumiy holatda pul fondlarini quyidagi 3-rasmda aks ettirdik. Qisqa qilib aytganda, korxonalarning xususiyatidan kelib chiqqan holda o'z pul fondlarini shakllantiradilar.

Korxona o'z faoliyatini boshlashda ya'ni faoliyatini yuritishda zarur bo'lgan mulkni sotib olishni hamda ishlab chiqarishni yuritishni moliyalashtiradigan asosiy manba bo'lib korxonaning ustav kapitali shaklida jamg'ariladigan mulk egalari mablag'lari, korxonada belgilangan tartibda shakllangan boshqa kapitallar, hamda ta'sischilarning ishlab chiqarishni kengaytirish uchun qoldirgan foydalari hisoblanadi. Bu mablag'lar korxonaning o'z mablag'laridir. Bundan tashqari korxonalar faoliyatini moliyalashtirishda qarz mablag'lari, ya'ni boshqa moliya-kredit

tashkilotlaridan, yuridik va jismoniy shaxslardan ma'lum bir muddatga qaytarish sharti bilan oladigan mablag'laridan ham foydalaniladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda O'zbekistonda korxonalar moliyalashtirishning asosiy va boshlang'ich manbai bo'lib quyidagi, ustav kapitali, rezerv kapitali, qo'shimcha kapital, amortizatsiya fondi, valyuta fondi, jalb qilingan mablag'lar fondlari, iste'mol fondi, qarz mablag'lar fondi va hokazolarni ko'rishimiz mumkin bo'ladi va shu bilan birgalikda quyida ularga o'zbek olimlari tomonidan berilgan ta'riflarni ko'rib chiqamiz.



3-rasm. Korxonalarda shakllanadigan pul fondlarining holati¹.

Ustav kapitali – bu korxonaning ochilishida ta'sischi tomonidan qo'yiladigan boshlang'ich summa bo'lib, bu kapital shakllanishida ta'sischi tomonidan pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tovar moddiy zaxiralari va boshqa aktivlar kiritilishi mumkin. Ustavda ularning umumiy qiymati ko'rsatiladi. Ustav kapitali korxonaning asosiy fondi hisoblanib, muhim iqtisodiy ahamiyatga ega.

Rezerv kapitali – bu korxonaning ehtiyot uchun saqlanadigan fondi bo'lib, xo'jalik faoliyatidan zararlarni qoplash uchun mo'ljallanadi. Bundan tashqari investorlar va kreditorlar daromadlarini to'lash uchun korxona foydasi yetmaganda ham ushbu fond mablag'laridan foydalaniladi. Rezerv kapitali korxonaning ishlari uzluksiz bo'lishini kafolatlaydi. Bunday manbaning borligi korxona o'z

¹И.М.Карасева, М.А.Ревякина «Финансовый менеджмент», ОМЕГА. Москва-2012, 42-стр.

majburiyatlarini to'lashga ishonch borligini bildiradi. Rezerv kapitali korxona foydasidan har yili ajratilib boradi. Uning hajmi ustav kapitalining 10-25 % atrofida shakllantiradi.

Qo'shimcha kapital – korxona o'z mablag'lari manbalaridan biri bo'lib, korxona xo'jalik faoliyati jarayonida, korxona aktivlari qiymati o'sishi natijasida hosil bo'ladi. Qo'shimcha kapital o'z ichiga kapital qayta baholanishini, emission daromadlarni o'z ichiga oladi. Kapital qayta baholash – korxona qonunchilik qarorlaridan kelib chiqib asosiy vositalari va tugallanmagan qurilishini qayta baholash natijasida mulk qiymatining o'sishi. Emission daromadlar – chiqarilgan aksiyalar qiymatining o'sishi natijasida olingan mablag'lar bo'lib, albatta bu daromad bevosita korxona iqtisodiy ko'rsatkichlariga bog'liq.

Amortizatsiya fondi – bu fond uzoq muddatli aktivlar amortizatsiyasi natijasida shakllanadi va yangi asosiy vositalar sotib olishga yoki qurishga mo'ljallanadi.

Bu fondning korxona faoliyatida o'ziga xos ahamiyatga ega. Bu holatda eng e'tiborli haqiqat shundaki amortizatsiya summasini belgilangan tartibda to'g'ri va o'z vaqtida hisoblash, hisoblangan bu summani vaqtinchalik aylanma aktivlarni oshirishga qaratish, vaqti-vaqti bilan uzoq muddatli aktivlar quvvatini oshirib borish lozim.

Valyuta fondi – korxonada eksport operatsiyalaridan valyuta tushumlari va import operatsiyalari (bunda asosan valyuta chiqib ketadi) natijasida shakllanadi. Bu fond mustaqil maqsadli ahamiyatga ega emas. Valyuta operatsiyalari o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Korxonalarning tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini o'tkazish maqsadida valyuta hisob raqamlariga ega bo'ladi.

Jalb qilingan mablag'lar fondlari. Korxona ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlash, moliyaviy resurslarini oshirish, moliyaviy foyda ko'rish maqsadlarida ba'zida yuridik va jismoniy shaxslardan pul mablag'lari jalb qiladi. Bunday mablag'lar korxonalarda asosan qimmatli qog'ozlar emissiya qilishdan kelib tushadi.

Iste'mol fondi korxonaning sof foydasi hisobidan shakllantiriladi. Iste'mol fondini tuzishda ko'zlangan asosiy maqsad ishchi va xodimlarga moddiy va ma'naviy rag'batlantirish hisoblanadi.

Qarz mablag'lar fondi. Bugungi kunda hech bir korxona qarz mablag'larini chetlab o'tolmaydi. Chunki qarz olmasdan faoliyat yuritadigan korxonalar ham vaqti-vaqti bilan davlat byudjeti oldida soliqlar va soliqqa tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha qarzi shakllanadi. Qarz mablag'lari normal iqtisodiy sharoitda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. Zayom mablag'lari – korxonaning qisqa muddatli bank kreditlari tartibida olgan mablag'i bo'lib, aylanma aktivlarning bir qismini moliyaviy ta'minlaydi. Bunday mablag'lar korxona faoliyatining minimal ehtiyojini ham qoplashi lozim. Ishlab chiqarish rejasini qayta tuzish, tayyor mahsulot jo'natilishida to'xtalib qolishlar, ishlab chiqarish yoki xom ashyo yetkazilishining bir tekisda bo'lmasligi bilan bog'liq qo'shimcha ehtiyojlar qisqa muddatli bank kreditlari bilan qoplanishi mumkin. Bundan tashqari xalqaro tajribalarda, korxonalarning korporativ obligatsiyalarini chiqarish orqali qarz mablag'lari fondlarini tashkil qilishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Bugungi kunda, agarda korxona xom ashyo sotib olish uchun moliyaviy

resurslari yetishmasa, ular banklarning faktoring operatsiyalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ya'ni bunda banklar korxonalarining debitorlik qarzlari sotib olishi yoki xom ashyo sotib olish xarajatlarini qoplab berishi mumkin. Faktoring korxonalar orasidagi oldi-sotdi munosabatlarini moliyalashtirib, to'lolmaslik risklarini kamaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonalar moliyaviy resurslari – bu, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ixtiyorlarida bo'lgan va turli xarakterdagi moliyaviy majburiyatlarni bajarishga, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni barqarorligini ta'minlashga doir xarajatlarni amalga oshirishga mo'ljallangan pul daromadlari va tushumlaridir.

Moliyaviy boshqarish tizimining muhim masalalaridan biri sifatida, aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy holati, barqarorligini boshqarish ularning ishlab chiqarish – moliyaviy resurslaridan to'laqonli foydalanish imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

Korxonalarda faoliyat boshlanishida moliyaviy resurslarning shakllanish manbalarining eng asosiy qismini korxona ustav kapitali tashkil etadi. Ammo takror ishlab chiqarish jarayonida korxonalarda mahsulot sotishdan tushum moliyaviy resurslarning asosiy qismini shakllantiradi. va undan so'ng korxonaning turli maqsadlaridan kelib chiqqan holda moliyaviy resurslardan foydalaniladi.

Amortizatsiya fondi ham korxonalarda moliyaviy resurslar shakllanishining asosiy manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Amortizatsiya fondining o'ziga xos xususiyati shundaki, korxona faoliyatiga kiritilgan asosiy vositalari va nomoddiy aktivlar qiymati asta sekinlik bilan mahsulot tannarxi tarkibiga amortizatsiya sifatida kiritildi boriladi va mahsulot realizatsiyasidan so'ng fond sifatida shakllanib boradi. Bunda ushbu uzoq muddatli aktivlar qiymatidan amortizatsiya hisoblash natijasida amortizatsiya fondi shakllanadi va bu fondning moliyaviy resurslari vaqtinchalik, ya'ni kelgusida uzoq muddatli aktivlar sotib olgunga qadar joriy aktivlar qismini moliyalashtirib turadi. Ya'ni korxonalar to asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni sotib olgunga qadar, bu fond mablag'laridan bir necha marta ishlab chiqarishni kengaytirish va sifatini oshirishga foydalanishi mumkin. Shuning uchun ham korxonada ishlab chiqarishni amalga oshirishda eng asosiy moliyaviy manbalardan biri ham amortizatsiya fondining moliyaviy resurslari hisoblanadi.

Umuman olganda korxonalarda moliyaviy resurslarning foydalanishda avvalambor ushbu moliyaviy resurslarni bir joyga pul fondi sifatida yig'iladi va bu pul fondining resurslaridan belgilangan maqsad yo'nalishlarida foydalaniladi. Korxonalarda moliyaviy resurslarning miqdori qancha bo'lishi emas balki moliyaviy resurslarning aylanuvchanligi qancha katta bo'lishi muhimroqdir. Chunki moliyaviy resurslar qancha tez aylansa, o'z mablag'lar bilan ham ma'lum bir davrda katta ishlab chiqarishni amalga oshirish va barcha xarajatlarni qoplash mumkin. Moliyaviy resurslar juda sekin aylansa ko'p moliyaviy resurslar bilan ham bir ishlab chiqarishni moliyalashtirish mushkul bo'lib, hattoki ishlab chiqarish ma'lum bir muddatga to'xtab qolishi ham mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brealey, R. A., Myers, S. C., Allen, F., & Эдмандс, А. (2020). Principles of corporate finance (14th ed.). McGraw-Hill Education.
2. Van Horne, J. C., & Wachowicz, J. M. (2008). Fundamentals of financial management (13th ed.). Pearson Prentice Hall.
3. Merton, R. C. (1992). Continuous-time finance (Rev. ed.). Blackwell Publishers.
4. Мешалкина, Р. Э. (2015). Финансовый менеджмент: Учебник ИНФРА-М.
5. Башаров, В. В. (2021). Управление финансовыми ресурсами коммерческих банков: Доказательства из Латвии. International Journal of Financial Research, 12(1), 369–387.
6. Stoyanova, V. (2018). Financial management: Theory and practice (2nd ed.). S Chand Publishing.
7. Бланк, И. А. (2017). Управление финансами предприятия. Ника-Центр.
8. Ковалев, В. В. (2021). Тестирование зарубежных и отечественных моделей прогнозирования банкротства на Российских предприятиях. ResearchGate.
9. Бланк, И. Т. (2019). Основы финансового менеджмента (Vol. 1). ЭЛГА.
10. Павлова, Л. П. (2016). Управление финансовыми ресурсами в инвестиционном проекте Vestnik RGGU.
11. Vahobov, A. V., & Malikov, T. S. (2011). Moliya (Darslik). Noshir.
12. Malikov, T. S., & Vahobov, A. V. (2011). Moliya: Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi Noshir.
13. Olimjonov, O. O., & Malikov, T. S. (2011). O'zbekistonning moliyaviy siyosati va uning o'ziga xos xususiyatlari. Iqtisod-Moliya.
14. Akramov, E. A. (2007). Korxonalarning moliyaviy holati tahlili Moliya.
15. Iminov, O. K. (2020). Moliyaviy resurslar va ularning boshqaruvi O'zbekistonda. Iqtisodiyot.
16. Xaydarov, N. X., & Vahobov, A. V. (2013). Moliyaviy savodxonlik asoslari. Baklria Press.
17. Xudoyqulov, S. (2023). Iqtisodiyot va moliyaviy resurslar boshqaruvi. Iqtisod-Moliya.
18. Karlibaeva, R. X. (2024). Oliy ta'lim muassasalari moliyaviy resurslari shakllanish tizimini boshqarish amaliyotining tahlili. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil.
19. Ibroximov, A. T. (2025). O'zbekistonda kreditlash tizimining holati va tahlili Образование наука и инновационное идеи в мире, 71(6), 393–398.
20. Qurbonov, X. A., Rashidov, O. Yu., & Karlibaeva, R. X. (2023). Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi.
21. Ishonqulov, N. F. (2022). Iqtisodiyot va moliyaviy barqarorlik O'zbekistonda Iqtisodiyot.